

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

6/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 5/6 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Умарханова Дилдора Шарипхановна</i> ЕВРОПА МИНТАҚАСИДА ЖИНОЯТ ИШЛАРИ БЎЙИЧА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ	9-14
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLAR O'RTASIDAGI FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABARTLAR.....	15-26
<i>Собирова Нозимахон</i> СИТУАЦИОННОЕ ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ АКАДЕМИЧЕСКОЙ НЕДОБРОСОВЕСТНОСТИ: РОЛЬ ОБУЧЕНИЯ, МОТИВАЦИИ И ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ К ОЦЕНКЕ	27-36
<i>Йўлдошев Азизжон Эргаш ўғли</i> ЖАМИЯТ ВА ДАВЛАТ ИШЛАРИНИ БОШҚАРИШДА ИШТИРОК ЭТИШ ҲУҚУҚИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ	37-45
<i>Турсунов Ойбек</i> ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ВОДНОГО ПРАВА	46-53
<i>Ismoilova Aziza Alisher qizi</i> MEHNAT MUNOSABATLARIDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHDA GENDER HUQUQIY EKSPERTIZA AHAMIYATI VA HUQUQIY MUAMMOLARI	54-60
<i>Safarova Shaxlo Pulatovna</i> YANGI O'ZBEKISTONNING HOZIRGI RIVOJLANISH DAVRIO'ZGARISHLARINING INSON HUQUQLARI TA'LIMINI AMALGA OSHIRISH VA RIVOJIGA TA'SIRI	61-67
<i>Akbaralieva Mukhayo Karamatullo kizi</i> CRIMINAL LIABILITY FOR KIDNAPPING IN FOREIGN COUNTRIES	68-71
<i>Valijonov Daler Dilshodovich</i> PROBLEMS OF COMBATING CORRUPTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND PRACTICE OF EU MEMBERS	72-76
<i>Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li</i> DAVLAT FUNKSIYALARI VA DAVLAT MOLIIYASI O'ZARO NISBATINING HUQUQIY MASALALARI	77-92
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i> VAKILLIK INSTITUTINING FUQAROLIK-HUQUQIY TAHLILI	93-103
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i> НАСЛЕДОВАНИЕ ПРАВ НА ОБЪЕКТЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ ...	104-109
<i>Рахмонова Мохичехра Нодирбек кизи</i> СУВЕРЕНИТЕТ И ЮРИСДИКЦИЯ В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ	110-118
<i>Худайбердиева Шоҳиста Акмал қизи</i> ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ РЕСПУБЛИКАЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК ВА	

ҲАМКОРЛИКНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДАГИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР	119-129
---	---------

Alijonov Ayubjon Qobiljon o'g'li

RAQAMLI IQTISODIY HAMKORLIKNI XALQARO TARTIBGA SOLISH	130-136
---	---------

Fayzulloyev Shohijaxon Jobirovich

XALQARO SAVDODA NIZOLARNI HAL QILISH KONSEPSIYASINING RIVOJLANISHI: TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	137-141
--	---------

Fayzullaeva Shakhlo Jumaniyaz kizi

ISSUES OF ONLINE DISPUTE RESOLUTION UNDER THE WTO	142-147
---	---------

Raimov Elbek Bahodirovich

OLIY TA'LIM TASHKILOTINING YURIDIK SHAXS SIFATIDAGI HUQUQIY MAQOMI.....	148-152
---	---------

Alieva Kamola Ravshanovna

OVERCOMING LEGAL BARRIERS TO ENHANCE WOMEN'S POLITICAL PARTICIPATION IN UZBEKISTAN	153-161
--	---------

Juraeva Asal

MECHANISM OF ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN	162-166
---	---------

Rakhmonov Otabek

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE REORGANIZATION OF JOINT STOCK COMPANIES	167-171
--	---------

Айбек Якубов

ПРАВОВОЙ ПОРЯДОК РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И МЕЖДУНАРОДНО-ЧАСТНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В РАМКАХ ВСТУПЛЕНИЯ ВО ВСЕМИРНУЮ ТОРГОВУЮ ОРГАНИЗАЦИЮ	172-178
--	---------

Zoilboyev Javlon Karimjon o'g'li

MA'MURIY SUD Hujjatlarini ijroga qaratishning huquqiy tartibi	179-184
---	---------

07.00.00 – TARIX FANLARI

Elmuratov Ortiq Oltiboy o'g'li

TURONNING YUNON-MAKEDONLARGA QARAMLIK DAVRI ME'MORCHILIK AN'ANALARI.....	185-192
--	---------

Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li

URBANIZATSIYA TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING TAHLILI	193-199
---	---------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Imamov Javokhir

LEVERAGING INTERNATIONAL BEST PRACTICES FOR ESTABLISHING MODERN TECHNOLOGICAL INDUSTRIAL ZONES IN UZBEKISTAN	200-203
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Shodmonova Shaxnoza Dadaxujayevna

"TAHDID" FENOMENI VA UNING SIYOSIY JIHATLARI	204-209
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Bawetdinov Mukhammeddin

UZAQBAY PIRJANOVNING PEYZAJ LIRIKASI 210-215

Соҳибова Зарнигор

ПЕЙЗАЖ ЛИРИКАСИДА ДАРАХТ ОБРАЗИ (ЗУЛФИЯ ИЖОДИ МИСОЛИДА) 216-219

Jonridova Sanobar Sherali qizi

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IMPLIKATSION BIRLIKLAR TADQIQI 220-224

Sharipova Mokhidil

PHONETIC CHARACTERISTICS OF ONOMATOPOEIC WORDS IN ENGLISH

LANGUAGE..... 225-231

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Abdurasul Abdurahimovich

PROFESSIONAL VA TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KOMPAS-3D
AVTOMATLASHGAN LOYIHALASH TIZIMINI QO'LLASH 232-237

Ro'ziyeva Nafosat Abdumumin qizi

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA ABDULLA AVLONIYNING AXLOQIY
QARASHLARI 238-245

Qalandarova Maxliyo

MOLIYAVIY SAVODXONLIKKA O'RGATISHDA O'QUVCHILARINING O'QUVBILISH
FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH 246-251

Чинқулова Гулмеҳра Баҳроновна

ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШДА ЗАМОНАВИЙ
ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ..... 252-258

Ibragimova Venera Azadovna

TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT MODUL TIZIMI IMKONIYATLARI..... 259-264

Turgunov Shuxratjon Nozimjon o'g'li

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HAQORATNING FONETIK VA MORFOLOGIK SATHLARIDA
IFODALANISHI 265-269

Received: 10 August 2024
Accepted: 15 August 2024
Published: 25 August 2024

Article / Original Paper

CIVIL-LAW ANALYSIS OF THE INSTITUTION OF REPRESENTATION

Tukhtaev Uktamjon Zarifjon ugli

Lecturer of the Civil Law Department of Tashkent State Law University

tukhtaevuktamjon@gmail.com

Abstract. This article analyzes the institution of representation in traditional civil law. A comparative analysis of the representation institutions of the Roman-Germanic and Anglo-Saxon systems has been conducted, identifying their history, similarities, and differences. Additionally, the important features of civil law representation are explained scientifically.

Keywords. Legal representation, voluntary representation, acting on behalf of a third party, intermediation, power of attorney, commercial representation, principle of autonomy, principle of transparency, mandate contract.

VAKILLIK INSTITUTINING FUQAROLIK-HUQUQIY TAHLILI

To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti, Fuqarolik huquqi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada an'anaviy fuqarolik huquqidagi vakillik instituti tahlil qilinadi. Roman-german va anglo-sakson vakillik institutlari o'rtasida qiyosiy tahlil olib borilgan bo'lib, uning tarixi, o'xshashliklari va farqlari aniqlangan. Shu bilan birga, fuqarolik-huquqiy vakillikning muhim xususiyatlari ilmiy nuqtayi nazardan tushuntiriladi.

Kalit so'zlar. Qonuniy vakillik, ixtiyoriy vakillik, begona shaxsning nomidan harakat qilish, vositachilik, ishonchnoma, tijorat vakilligi, erk muxtoriyati, oshkoralik tamoyili, mandat shartnomasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI6Y2024N11>

Kirish. O'zbekiston fuqarolik huquqidagi vakillik instituti kontinental huquq tizimiga mansub bo'lib, bu fuqarolik huquqining ko'plab boshqa institutlari kabi. Zamonaviy qiyosiy huquqshunoslikda anglo-sakson (Common law) va kontinental huquq (Civil law) tizimlari o'rtasidagi farqlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, bir huquqiy oilaga mansub mamlakatlarning milliy huquqlarida ham fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Vakillik huquqi ham bu borada istisno emas. Kontinental va ingliz huquq modellariga yaqinroqdan nazar solsak, ushbu munosabatlarni huquqiy tartibga solishda sezilarli farqlar ko'zga tashlanadi. Bu farqlar qiyosiy huquqshunoslik va O'zbekiston fuqarolik huquqi uchun qiziqarli tadqiqot mavzusi bo'lishi mumkin. Ushbu tahlil orqali O'zbekiston huquq tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro tajribadan foydalanish imkoniyatlari ochiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Vakillikning tarixiy asoslari va huquqiy me'yorlarini tushunish uchun kontinental va ingliz huquq tizimlarida vakillik huquqining

rivojlanish jarayoni tahlil qilinadi. Maqolada, R.Zimmermann va K.Zweigert kabi olimlarning asarlari, shuningdek, O'zbekiston fuqarolik qonunchiligi va xalqaro huquqiy hujjatlar tahlilga kiritiladi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy-huquqiy tahlil uslubi qo'llaniladi.

Muhokama. Zamonaviy fuqarolik huquqida qit'a bo'ylab vakillik huquqining muayyan farqlarining ko'rsatishda vakillikning (vakolatning) manbai, ya'ni uning kelib chiqishi mezonidan belgilanadi. Shunga ko'ra, vakillik **qonuniy asosda**, ya'ni normativ ko'rsatmaga asoslanib yuzaga keladigan va **ixtiyoriy (konsensual)**, boshqacha aytganda, kelishuv asosida yuzaga keladigan vakillikka bo'linadi [8, 319-bet]. Ushbu turkumlash nemis, golland va fransuz huquqidan bizga ma'lum. Konsensual vakillik holatida agentning vakolati prinsipialning roziligiga bog'liq bo'lishi mumkin. Ya'ni bunda agentning prinsipial uchun huquqlar va majburiyatlar yaratish huquqi prinsipialning o'zi tomonidan berilgan aktdan (vakolat) kelib chiqadi.

Qonuniy vakillik vakolatlarining qonun yoki sud qarori asosida vujudga kelishi bilan xarakterlanadi. Bu vakolat beruvchi shaxsning maxsus aktini talab etmaydi. Masalan, otalikni belgilash orqali qonuniy vakillik paydo bo'lishi mumkin. Bu institut huquqda bir necha muhim vazifalarni bajaradi va turli vakillik kategoriyalarini o'z ichiga oladi. Ularning eng ahamiyatlilari – voyaga yetmaganlar va to'liq muomala layoqatiga ega bo'lmagan shaxslar manfaatlarini himoya qilish maqsadidagi vakillik, korporativ munosabatlardagi vakillik. Bu yerda yuridik shaxslarning tijoriy faoliyatida ularning boshqaruv organlari yuridik shaxs nomidan harakat qiladi. Qonuniy vakillik bu toifadagi shaxslarning huquqlarini himoya qilish va ularning manfaatlarini ta'minlash uchun muhim huquqiy mexanizm hisoblanadi. U jamiyatda huquqiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. (yuridik shaxslarning tijoriy faoliyatida yuridik shaxs nomidan ularning boshqaruv organlari harakatlari¹).

Qonuniy vakillik tushunchasi umumiy mulk rejimidan kelib chiqadigan vakillikni va zaruriy vakillikni (ishonchnomasiz o'zgalar manfaatini ko'zlab harakat qilish yoki "negotiorum gestio") o'z ichiga oladi. Biroq, ingliz huquqida vakillik instituti asosan vakil qiluvchi shaxsning xohish-irodasiga asoslanib vujudga keladi deb hisoblanadi va shu bois ko'pincha fuqarolik-huquqiy konsensual vakillikka o'xshatiladi.

Ingliz huquqida qonuniy vakillik (agency by operation of law) ba'zi hollarda uchraydi, ammo u asosan er-xotin vakilligi va zaruriy vakillik bilan cheklanadi. Muomala layoqatini yo'qotgan yoki cheklangan shaxslarni himoya qilish vositasi sifatida qonuniy vakillik ingliz huquqida mavjud emas, bu esa kontinental huquq tizimidan farq qiluvchi muhim jihat hisoblanadi.

Bugungi kunda **konsensual vakillik** huquqning kontinental konsepsiyasiga ega davlatlarda shartnomaviy institut bo'lib, tadbirkorlik va tijorat faoliyatining muayyan ta'siriga uchragan². Zamonaviy tijorat dunyosida konsensual vakillik institutining funksiyasi xo'jalik muomalasini rivojlantirishga ko'maklashish (ishtirokchilarga boshqa shaxslarning harakatlari

¹ Korporativ vakillik, ustun fikrga ko'ra, mustaqil institut ma'nosida vakillik jarayoni emas. Yuridik shaxslar organlarining harakatlari o'z-o'zidan yuridik shaxslarning o'zi tomonidan amalga oshirilgan harakatlar hisoblanadi. Shu bilan birga, kontinental tizimning ayrim davlatlari boshqa yondashuvni qo'llaydi. Masalan, golland olimi Verhagen golland huquqida yuridik shaxslar organlarining, muassislari tomonidan vakolatli hujjatlar bilan vakolat berilgan harakatlari, korporativ vakillikni ifodalaydi va u qonuniy (jamo) va shartnomaviy (xususiy) vakillik o'rtasida o'rtacha xarakterga ega deydi. Bir tomondan, yuridik shaxs o'z mustaqilligi bilan kimlarga tegishli vakolatlarni aniqlaydi va ularning mazmuni muassislari hujjatlari bilan belgilanadi. Boshqa tomondan, ushbu vakillikning toifasi yuridik shaxs organlarining ichki tuzilishiga bog'liq bo'lib, shu sababli turli tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxslar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bilan chambarchas bog'liqdir.

² Biznes huquqi fuqarolik huquqining an'anaviy sivilistik tamoyillariga zid bo'lgan, ammo tijorat zarurati g'oyasi bilan asoslangan huquqiy doktrinalar to'plamini anglatadi. Fuqarolik qonunchiligida bunga, masalan, kreditorning rozilgisiz talab qilish huquqini boshqa shaxsga o'tkazish misol bo'la oladi [10, s. 438].

orqali huquqiy oqibatlarni vujudga keltirish imkoniyatini berish), yuridik fakt esa vakil qiluvchi shaxsning roziligini ifodalovchi huquqiy aktdir. Shunga ko'ra, konsensual vakillikning aniqlovchi jihati **iroda ifodalanishining obyektiv ko'rinishi** hisoblanadi.

Yuqoridagilarga zid ravishda, **qonuniy vakillik** vakil qiluvchi shaxsning vakil bo'lish irodasidan qat'i nazar ifoda etiladi. Bundan kelib chiqadiki, o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'la olmaydigan va majburiyat olmaydigan shaxslarni himoya qilish uchun yaratilgan qonuniy vakillik asosiy prinsiplari bo'yicha ixtiyoriy (konsensual) vakillikdan farq qiladi.

Konsensual vakillik huquqiy avtonomiya, ya'ni **erk muxtoriyati** tamoyili bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxs qaysi vakil orqali harakat qilishni va qanday hajmda vakolat berishni o'zi belgilaydi. Ushbu sifat konsensual vakillikning qonuniy vakillikdan mustaqil ravishda xususiy huquqda mavjudligini izohlab bera oladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi xalqaro munosabatlarda konsensual vakillik prinsipial amaliy ahamiyatni ko'rsatadi. Shu sababli ham u doim qiyosiy huquqshunos olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan.

Qit'a mamlakatlari fuqarolik huquqida ixtiyoriy vakillik an'anaviy ravishda **bevosita** (real) vakillik va **bilvosita** (hosila) vakillikka bo'linadi. Bevosita vakillik umumiy vakillik hisoblanib, ushbu bo'linish konseptual xarakterga ega. O'zbekiston fuqarolik huquqida bevosita vakillikka ishonchnoma va topshiriq shartnomasi, bilvosita vakillikka esa vositachilik shartnomasi misol bo'ladi.

Bevosita vakillik holatida vakil "**begona shaxs nomidan**" harakat qilib, vakil qiluvchi shaxsni va uchinchi shaxsni huquqiy jihatdan bog'laydi va o'zi ular o'rtasidagi munosabatlardan chiqib ketadi. Bu qit'a doktrinasida odatda "transpersonal effekt" deb ataladi. Fuqarolik huquqida "begona shaxs nomidan" harakat qilish uchinchi shaxs vakil qiluvchi shaxs bilan shartnoma tuzilayotgani haqida vakildan yoki ish holatidan bilgan yoki bilishi lozimligini anglatadi.

Bilvosita vakillik holatida vakil "**o'z nomidan**" harakat qilib, uchinchi shaxs bilan bitimning ishtirokchisiga aylanadi.

Ushbu ikki o'zaro bir-birini istisno qiluvchi konsepsiyaning asosiy g'oyalarini aniqlash uchun qit'ada vakillikning paydo bo'lish tarixi bilan tanishish zarur. Vakillik institutining tarixiy tahlili ikkita eng ko'p qo'llaniladigan asarda ko'rsatilgan, bular: R.Zimmermanning "Majburiyatlar huquqi. An'anaviy fuqarolik huquqining rim huquqiy asoslari" (The Law of Obligations: Roman Foundations of the Civilian Tradition) [6] va K.Zweigert va H.Koetzning "Qiyosiy huquqshunoslikka kirish" (An Introduction to Comparative Law) [7] kitoblari hisoblanadi.

Ko'pchilik huquqiy hodisalarning paydo bo'lish tarixi kontinental huquqiy tizimda odatda Rim huquqidan boshlanadi. Klassik Rim huquqi vakillik tushunchasini, ya'ni begona shaxslar harakatlari orqali fuqarolik huquq va majburiyatlarini vujudga keltirish imkoniyatini tan olmagan. "*Alteri stipulari nemo potest*"¹ (hech kim boshqasining o'rnida majburiyat olishga qodir emas) mahsulida ifodalangan majburiyatlarning shaxsiy tabiati tamoyiliga ko'ra, na uchinchi shaxs foydasiga shartnoma tuzish, na vakillik huquqiy mustaqil kategoriya sifatida

¹ Ushbu ifoda Rim huquqshunosi Ulpiandan kelib chiqqan bo'lib, "*Hech kim boshqa bir kishi uchun stipulyatsiya qila olmaydi*" degan ma'noni anglatadi. Rim huquqida "stipulyatsiya" – bu og'zaki shartnoma turiga tegishli bo'lib, u ikki tomonlama kelishuv orqali amalga oshiriladi va bu shartnoma doirasida bir tomon boshqa tomonga biror narsa qilishni yoki qilmaslikni va'da qiladi. Ulpianning mazkur ifodasi stipulyatsiyadan tashqari, umuman shartnomalar kontekstida ham qo'llanilgan. Ushbu qoida shartnoma tuzishda shaxsiy ishtirokni ta'kidlaydi va shartnoma tuzish huquqini o'z egalariiga beradi, boshqa shaxslar o'z manfaatlarini yo'q joyda vakolatli ravishda harakat qila olmaydilar.

qo'llanilishi mumkin edi. "*Mandatum*"¹ shartnomasi, keyinchalik fuqarolik huquqida bevosita vakillikning prototipiga aylangan bo'lib, u vakilga, ya'ni mandatariyga, prinsipal (ishonch bildirilgan shaxs) va uchinchi tomon o'rtasida huquqiy majburiyatlarni belgilash huquqini bermas edi. Faqatgina alohida hollarda Rim huquqi vositachining harakatlari natijasida huquqiy oqibatlar kelib chiqishini tan olardi. Bu holatlar ma'lum darajada bevosita vakillikka qiyoslanishi mumkin.

O'rta asrlarda vakillikning huquqiy nazariyasi rivojlanmagan edi. XVII asr huquqshunoslari, ya'ni rim-golland yurisprudensiyasi asri vakillik huquqining zamonaviy dunyoda huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy jihatlarini rivojlantirdilar, ular ko'pincha rim yurisprudensiyasiga qarama-qarshi ravishda amalga oshirildi. Avvalo, ular bevosita vakillik yoki vakillik shartnomasi konsepsiyasini ishlab chiqdilar, bunda vakil boshqa shaxs nomidan tuzilgan bitimdan chiqib ketadi va bu rim mandatum shartnomasi yordamida amalga oshiriladi. Ushbu konsepsiya Ulpianning "*alteri stipulari nemo potest*" qoidasiga zid keladi va fuqarolik-huquqiy muomalada shaxsga begona shaxs harakatlari orqali huquq va majburiyatlarni vujudga keltirish imkonini beradi. Ushbu yutuq tabiiy huquq maktabi huquqshunolariga tegishli deb qaraladi [7, 432-bet]. Bevosita vakillik konsepsiyasini ishlab chiqishda eng katta rol golland olimi Hugo Grotsiyga tegishli bo'lib, u vakillik shartnomasini uchinchi shaxs foydasiga tuzilgan shartnomadan birinchi bo'lib ajratib ko'rsatadi [6, 45–46-betlar]. Bu farq hali ham qit'a tizimidagi davlatlarning fuqarolik huquqida asosiy hisoblanadi. R.Zimmermann buni quyidagicha ta'riflaydi. Bir turkumga oid shartnomalar (uchinchi shaxs foydasiga tuzilgan shartnoma va bevosita vakillik shartnomasi) o'rtasidagi yagona umumiy xususiyat shundaki, mustaqil uchinchi shaxs ikki ishtirokchi o'rtasida tuzilgan bitim bo'yicha huquqlarni oladi. Vakillik shunday vaziyatda sodir bo'ladiki, bir shaxs (agent), uchinchi shaxs (prinsipal) tomonidan vakolatlangan, boshqa shaxs bilan prinsipial manfaatlari uchun shartnoma tuzadi, natijada tuzilgan shartnoma prinsipial va ushbu boshqa shaxs o'rtasida huquqiy ta'sir o'rnatadi. Shunday qilib, vakillikning uchinchi shaxs foydasiga tuzilgan shartnomadan asosiy farqi shundaki, prinsipial har qanday holatda agent tomonidan tuzilgan shartnomaning tarafiga aylanadi, agent faqat vositachi rolini bajaradi va uning tomonida hech qanday huquqiy oqibatlar yuzaga kelmaydi.

Boshqa holatlarda uchinchi shaxs faqat ijroni talab qilish huquqiga ega bo'ladi, ammo shartnoma tarafiga aylanmaydi. Shartnoma kreditor va qarzdor o'rtasida huquqiy kuchga ega bo'ladi. Shartnomani bajarish majburiyati faqat vakillik munosabatlarida yuklanishi mumkin, fuqarolik huquqida uchinchi shaxsga majburiyat yuklaydigan shartnoma tuzishga yo'l qo'yilmaydi. Huquqiy munosabat ishtirokchilarining irodasini tahlil qilsak, agent prinsipal nomidan va'dani qabul qilishini, qarzdor esa shartnomada uchinchi shaxs foydasiga o'z nomidan harakat qilish irodasini ifoda etishini ko'ramiz. Bu qarashlar tizimi Gugo Grotsiyga shunday xulosa chiqarishga imkon berdi: agar shaxs boshqa nomidan harakat qilsa, mulk huquqi vakil kimning nomidan harakat qilayotgan bo'lsa, o'sha shaxsda paydo bo'ladi. Kristian Vulf bu xulosani to'ldirib, vositachi vakil qiluvchi shaxs ko'rsatmalariga binoan harakat qilsa, bunday shartnoma unga nafaqat huquqlar, balki majburiyatlar ham yuklashini ta'kidlaydi. Fuqarolik huquqida vositachining harakatlariga yuridik kuch berish uchun vakolatning to'g'ri amalga oshirilishini talab qilish zarur bo'lib qoldi.

¹ "*Mandatum*" shartnomasi Rim huquqida keng qo'llanilgan muhim shartnoma turidir. Ushbu atama lotin tilidan olingan bo'lib, "*mandate*" yoki "*buyruq*" degan ma'nolarni anglatadi. Asosan, bu shartnoma bir shaxsning (mandatorning) boshqa shaxsga (mandatariyning) ma'lum bir vazifani bajarishni topshirishini o'z ichiga oladi. Mandatariy mandator tomonidan topshirilgan vazifani bepul yoki ramziy haq evaziga bajarishga rozilik bildiradi.

Tabiiy huquq maktabi konseptual topilmaga ega bo'lishdan tashqari, tabiiy huquq nazariyasining mazmuniy asosiga tayanib, barcha shartnoma munosabatlari qurilgan iroda erkinligi prinsipini e'lon qilgan holda vakillik huquqining fuqarolik-huquqiy asoslarini asoslab berdi. Kontinental Yevropa mamlakatlari va O'zbekiston fuqarolik huquqi qoidalariga muvofiq vakil faqat vakolat mavjudligiga tayanib prinsipialni majbur eta olmaydi. Vakillik munosabatlarining paydo bo'lishi uchun kontinental tizim maxsus talabni ilgari suradi: agent prinsipial nomidan harakat qilishi kerak va shu sababli uchinchi shaxs oldida o'z nomidan emas, balki vakil sifatida harakat qilayotganini ma'lum qilishi lozim. Bu **oshkoralik tamoyili** bo'lib, uni qisman Gugo Grotsiy va tabiiy huquq maktabi tomonidan kiritilgan va asoslab berilgan [6, 46–47-betlar]. Oshkoralik tamoyili iroda muxtoriyatiga asoslanadi. Erk muxtoriyatining asosiy jihatlaridan biri shundaki, shaxs kim bilan shartnoma munosabatlariga kirishishni o'zi erkin hal qiladi. Bunday shartnoma erkinligi uchinchi shaxs u bilan shartnoma munosabatlariga kirishayotgan tomon o'z manfaatlarini ko'zlamay, balki vakil sifatida ish yuritayotganini bilmaguncha mavjud bo'lmaydi. Uchinchi shaxs boshqa tomon vakil sifatida harakat qilayotganini anglamaguncha, u faqat vakil bilan shaxsan shartnoma tuzishga rozilik bildirishi mumkin¹. Oshkoralik tamoyili vakillik huquqida o'zini "o'zga shaxs nomidan harakat qilish" konsepsiyasini tavsiflovchi belgida namoyon etadi.

Bevosita vakillikni bir turkumga oid (*genus*) deb atash bejiz emas. Vositachilik shartnomasidan oldin paydo bo'lgan "o'zga shaxs nomidan harakat qilish" konsepsiyasi avvalo fuqarolik huquqida vakillikning odatiy xususiyatlarini belgilaydi.

Bilvosita vakillik konsepsiyasining fuqarolik huquqi tizimiga kiritilishi uning tijoriy tarafdin qulayligi g'oyasi bilan asoslangan edi. Boshqa shaxs hisobidan, ammo o'z nomidan, vakillik qilinayotgan shaxsning huquqiy holatini yuridik jihatdan o'zgartirish imkoniyatisiz harakat qilish tuzilmasi muayyan iqtisodiy maqsadlarga xizmat qiladi va transpersonal ta'sirdan xoli bo'ladi².

Agar shaxs fuqarolik huquqida o'z nomidan shartnoma tuzsa, u asosiy shartnomaning tarafiga aylanadi va bilvosita vakillik natijasida vakil qiluvchi shaxs bilan uchinchi shaxs o'rtasida huquqiy munosabatlar yuzaga kelmaydi, vakil uchinchi shaxsga nisbatan barcha huquq va majburiyatlarni oladi. Agar uchinchi shaxs u bilan shartnoma tuzayotgan shaxs o'zga shaxsning topshirig'i asosida harakat qilayotganini bilmasa, "yashirin" vakillik (*hidden representation*)³ deb ataladigan vakillik turini vujudga keltiradi.

¹ Kontinental huquq tizimida vakillik vakolatlarining mavjudligi haqida uchinchi shaxs oldida guvohlik berish talabi keng ma'noda tushuniladi. Vakilning "o'zga shaxs nomidan" ish ko'rayotganini ochiq-oydin aytishi yoki to'g'ridan-to'g'ri prinsipalni ko'rsatishi shart emas, shartnoma tuziladigan vaziyatlarning o'zi agentning vakillik vazifalari borligini ko'rsatib tursa kifoya. Shu yo'l bilan oshkoralik tamoyili ta'minlanadi.

² Yuqorida ta'kidlanganidek, fuqarolik huquqida fuqarolik-huquqiy asoslarga qurilgan nazariyalar hamda fuqarolik huquqiga kiritilgan, biroq iqtisodiy maqsadga muvofiqlik bilan asoslangan nazariyalar mavjud. Vakillik huquqida bunday shartnomalar qatoriga xususiy huquqni tartibga solishga dualistik yondashuvga ega mamlakatlarda (masalan, Germaniya va Fransiya) Tijorat kodeksiga kiritilgan vositachilik shartnomasi kiradi. Boshqacha yondashuv Gollandiya huquqiga xos bo'lib, u vositachilik shartnomasi haqidagi qoidalarni fuqarolik kodeksidagi shartnomalarning alohida turlarini tartibga solish bo'limiga joylashtiradi va bu shartnomani mandat shartnomasi bilan bir qatorda vakillik shartnomasi sifatida talqin qiladi. Garchi bugungi kunda O'zbekiston yuridik nazariyasida vakillik tushunchasining umumiylikni talqin etuvchi, bevosita va bilvosita vakillikni "bir tom ostida" birlashtiruvchi qarashlar kuzatilmasa-da, O'zbekiston huquq tizimi masalani huquqiy tartibga solishni Gollandiya huquqiga o'xshash yo'l tutadi va natijada Fuqarolik kodeksining umumiy qismida mavjud bo'lgan vakillik to'g'risidagi qoidalarni vositachilik munosabatlariga qo'llash zarurligini asoslaydi.

³ Kontinental Yevropa huquqshunosligida "yashirin" vakillik holatlari ajratib ko'rsatilgan. Bu atama vakilning haqiqiy vakolatlari va kimligi ochiq emas, balki ma'lum bir sabablar tufayli yashirin tutilgan vakillik holatlarini anglatadi. Yashirin vakillik vakilning o'z harakatlarini boshqa shaxs yoki tashkilot nomidan amalga oshirayotganini ochiqdan-ochiq e'lon qilmasligi bilan xarakterlanadi. Bu turdagi vakillik, ko'pincha, turli sabablar bilan, jumladan, bozor strategiyalari, maxfiylik siyosati yoki huquqiy cheklavlarni chetlab o'tish maqsadida qo'llaniladi.

Bilvosita vakillikning klassik namunasi fransuzcha "commission" (vositachilik) munosabatlari hisoblanadi. Bu holatlarda vakil "komissioner" yoki "vositachi" deb nomlanadi. Vositachilik shartnomasi tuzilganda, prinsipial (komitent) va uchinchi shaxs o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri shartnoma munosabatlari yuzaga kelmaydi. Garchi vositachi uchinchi tomon bilan to'laqonli kontragent sifatida muomala qilsa-da, komitent va vositachi o'rtasidagi kelishuv vakillik shartnomasi hisoblanadi. Bu, hatto uchinchi shaxs vositachining kimningdir manfaatlarini ko'zlab ish yuritayotganini va qaysi shaxs uchun ishlayotganini bilgan taqdirda ham o'rinli bo'ladi. Shunday qilib, vositachilik munosabatlari bilvosita vakillik hisoblanadi. Biroq, bu munosabatlarni uchinchi shaxs agentning boshqalar manfaati uchun harakat qilayotganidan mutlaqo bexabar bo'lgan yashirin yoki oshkor etilmagan vakillik deb tasniflash noto'g'ri. Chunki vositachilik munosabatlarida agent boshqa shaxs manfaatlari yo'lida ish yuritayotgani ma'lum bo'ladi.

Vositachilik shartnomasi tushunchasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 832-moddasida huquqiy jihatdan mustahkamlangan:

Vositachilik shartnomasi bo'yicha bir taraf (vositachi) ikkinchi tarafning (komitent) topshirig'i bo'yicha o'z nomidan, biroq komitent hisobidan bir yoki bir necha bitimni haq evaziga tuzish majburiyatini oladi.

Vositachi tomonidan uchinchi shaxs bilan tuzilgan bitim bo'yicha huquqlarni oladi va majburiyatlarni bajaradi, garchi komitent bitimda ko'rsatilgan bo'lsa yoki uchinchi shaxs bilan bitimni bajarish bo'yicha bevosita munosabatlarga kirgan bo'lsa ham.

Vositachilik shartnomasi milliy va xalqaro tijoratda, avvalo xo'jalik maqsadlarida keng foydalanilgan va hozirgacha qo'llanilmoqda. Huquqshunoslik fani uning kelib chiqishini quyidagicha iqtisodiy asoslashni keltiradi:

Tasavvur qiling, "Shoe Seller" XK kompaniyasi (poyabzal sotuvchisi) katta miqdorda "Foot Factory" MCHJ (ishlab chiqaruvchi)dan poyafzal sotib oladi va keyinchalik uni boshqa firmalarga sotadi. Bunday holatda "Shoe Seller" XK mahsulot talabdan tushib qolishi yoki bozorda past narx taklif etilishi kabi tadbirkorlik xavfini to'liq o'z zimmasiga oladi. Agar "Shoe Seller" XK bu xavfini "Foot Factory" MCHJ bilan bo'lishmoqchi bo'lsa, ular vositachilik shartnomasi asosida harakat qilishni kelishib olishlari mumkin. Vositachilik shartnomasi bo'yicha "Shoe Seller" XK poyabzalni ulgurji xaridorlarga "o'z nomidan" sotadi va natijada – ulgurji xaridorlar "Shoe Seller" XK bilan shartnoma huquqlarini qo'lga kiritishadi ("Foot Factory" MCHJning shartnoma bo'yicha javobgarligi chetlashtiriladi), garchi ular "Shoe Seller"ning "Foot Factory" manfaatlarida harakat qilayotganini bilsalar ham. Ammo, agar "ShoeSeller" "FootFactory" manfaatlarida ishlayotgan bo'lsa, u holda uchinchi taraf bilan tuzilgan bitimlar bo'yicha iqtisodiy xavf to'liq "FootFactory" zimmasida bo'ladi va "ShoeSeller" faqat sotishdan olingan komissiya (foiz) xavfini o'z zimmasiga oladi.

Vositachilik shartnomasi savdo munosabatlarini huquqiy rasmiylashtirish uchun distribyutorlik shartnomasidan afzalroq shakl sifatida qaralmoqda. Distribyutor tovarni sotib olib, mulkdorga aylanadi va barcha xavf-xatarlarni o'z zimmasiga oladi. Vositachi esa komitent oldidagi majburiyatlarni bajaradi, ammo vositachilik predmetiga nisbatan mulk huquqiga ega bo'lmaydi. Bu "komitent hisobidan harakat qilish" tamoyili bilan izohlanadi. Vositachining daromadi sotilgan tovar miqdoriga bog'liq ravishda shakllanadi. Shunday qilib, vositachilik shartnomasi iqtisodiy jihatdan yanada qulay va xavfsiz bo'lib, savdo zanjirida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Vositachilik munosabatlarida vakillik bilvosita xarakterga ega, chunki shaxs (vakil) boshqa shaxs (vakil qiluvchi) manfaatlari va foydasi uchun harakat qilib, odatda, unga yuridik huquqlar va majburiyatlarni yaratmaydi, chunki o'zi uchinchi shaxs bilan bitim tuzishda

ishtirok etuvchi tomon bo'lad. Vakillikning muhim xususiyati bo'lgan, topshiriq shartnomasi va ishonchnoma berish hujjatidan kelib chiquvchi munosabatlarga xos bo'lgan, shartnomada (bitimda) ishtirok etmagan shaxsga to'g'ridan-to'g'ri huquqiy ta'sir o'tkazish imkoniyati vositachilik munosabatlarida mavjud emas. Golland huquqshunosi X.L.Y. Verxagen vositachilikni "vakolatsiz topshiriq" deb ataydi [5, 15–21-betlar].

Bevosita vakillik va bilvosita vakillik "*o'zga shaxs nomidan harakat qilish*" va "*o'z nomidan harakat qilish*" huquqiy jihatdan o'zining asosiy ma'nosida uchinchi shaxs bilan kim yuridik bog'lanishini farqlab beradi. Bevosita vakillikda bitim prinsipial va uchinchi shaxs o'rtasida tuziladi. Vositachilikda esa bitim vositachi va uchinchi shaxs o'rtasida shakllanadi. Har ikki vakillik turi shaxsiy-huquqiy tabiatli shartnoma g'oyasiga asoslanadi. Bu shartnomaning faqat ishtirokchi tomonlar uchun huquq va majburiyatlar yaratishini anglatadi. Shunday qilib, vakillikning bu ikki turi huquqiy oqibatlar va munosabatlar tuzilishida farqlanadi, ammo ikkisi ham shaxsiy-huquqiy shartnoma tamoyillariga tayanadi.

Kontinental huquq tizmi vakillik munosabatlarida **tashqi** va **ichki tomonlarni** aniq ajratib ko'rsatadi. Topshiriq va vositachilik vakil qiluvchi shaxs bilan vakil o'rtasidagi ichki munosabatlarni rasmiylashtiradi. Vakil va uchinchi shaxs o'rtasidagi tashqi munosabatlar Yevropa davlatlari Fuqarolik kodekslarining umumiy qismidagi qoidalar bilan tartibga solinadi. Milliy fuqarolik qonunchilikda bu Fuqarolik kodeksining "Vakillik va ishonchnoma" (129-144-moddalar) 10-bobi bilan tartibga solinadi.

Bu 1847-yilda qit'a tizimida kashf etilgan va "vakolat"ni uchinchi shaxslar bilan bitimlar tuzish huquqini ishonchli shaxsga beruvchi maxsus huquqiy akt sifatida ajratib ko'rsatgan "kashfiyot" tufayli sodir bo'ldi. XIX asrga qadar bunday farq mustaqil huquqiy rol o'ynamagan. O'sha vaqtga qadar vakolat berish doimo shartnomadan kelib chiqadi va undan ajratib bo'lmaydi, deb hisoblangan. Fransuz Fuqarolik kodeksi hali ham vakolat berishni faqat maxsus shartnoma doirasida ko'rib chiqadi [7, 434-bet].

Yering birinchi bo'lib vakillik vakolatini vujudga keltirish uchun nafaqat vakillik shartnomasi, balki boshqa shartnomalar, masalan, mehnat shartnomasi yoki birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma ham asos bo'lishi mumkinligi g'oyasini ilgari surdi. Yeringning fikricha, "mandate" so'zi vakillik shartnomasining **ichki tomonini**, "vakil" so'zi esa ushbu shartnomaning **tashqi tomonini** ifodalaydi. Yering ta'kidlashicha, vakillikning bir tomoni ikkinchi tomoniga mutlaqo bog'liq emas va ularning mos kelishi "butunlay tasodifiy xususiyatga ega". Mandat shartnomasi bilan vakillik funksiyalariga ega bo'lgan, ammo vakil bo'lmagan shaxslar mavjud; shuningdek, mandat shartnomasi bilan vakillik funksiyalariga ega bo'lmagan, lekin vakil bo'lgan shaxslar ham bor [6, 15-bet]. Shu bilan birga, Yering vakillikning ichki va tashqi tomonlari bitta huquqiy munosabat – mandat shartnomasining elementlari ekanligini ta'kidlagan.

Yakuniy qadamni Laband qo'ydi. U vakolat va mandat bir munosabatning ikki tomoni ekanligini, lekin ular mustaqil tabiatga ega bo'lib, amalda ko'pincha bir-birini qoplab, yagona huquqiy munosabatdek ko'rinsa-da, alohida tushunchalar ekanini ta'kidladi. Uning fikricha, mandat shartnomasi agentning majburiyatlari va prinsipalga nisbatan vakolatlariga taalluqli bo'lsa, vakolat berish akti agentga prinsipalni va uchinchi shaxsni huquqiy jihatdan bog'lash imkonini beradi. U bu tushunchalarni alohida tartibga solishni taklif qildi, shuning uchun vakolatlarining muddati va chegaralari (vakil o'z harakatlari bilan vakilning huquqiy holatini o'zgartirgan holda qachon harakat qilishi mumkinligini belgilaydigan) shartnomaviy huquqiy munosabatdan (mazmuni vakil nima qilishi kerakligini aniqlaydigan) farq qilishi lozim. Bundan tashqari, Laband nafaqat mandat va vakolatlar, balki ularning huquqiy oqibatlari ham tushuncha jihatidan ajratilishi kerakligini isbotladi, ya'ni agent vakolatlariga ega bo'lishi

mumkin, ammo mandat shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlarga muvofiq harakat qilmasligi mumkin. Ta'kidlash joizki, Labandning dastlabki g'oyalari Germaniyaning "Procura" huquqiy tijorat institutiga asos bo'ldi. 1861-yilgi Germaniya Umumiy Tijorat kodeksiga ko'ra, Prokurist sifatida ro'yxatdan o'tgan agentning vakolatlari qonuniy jihatdan oldindan belgilab qo'yilgan bo'lib, unga tegishli barcha tijorat faoliyatini amalga oshirish uchun barcha harakatlarni o'z ichiga olardi. Prinsipal bilan agent o'rtasidagi shartnomada belgilangan va hatto uchinchi tomonga ma'lum bo'lgan cheklovlar "Procura" doirasiga ta'sir qilmas edi [6, 24-bet].

Laband tomonidan taklif qilingan dalillar keyinchalik nemis yuridik fanida "abstrakt prinsip" (Abstraktionsprinzip) yoki "mustaqillik printsipti" deb nomlandi. Ushbu prinsipdan kelib chiqadigan eng muhim xulosa shundaki, agent uchinchi tomonga nisbatan vakillik shartnomasida belgilanganidan ko'proq yuridik imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Mandat va vakolat – mustaqil yuridik oqibatlarga ega bo'lgan ikki mustaqil tushuncha ekanligini tasdiqlash (mustaqillik printsipti) fanga va huquqqa sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ushbu qoidalar Germaniya, Shveysariya, Shvetsiya, Italiya, Gretsiya, Yaponiya va Niderlandiyaning milliy qonunchiligida huquqiy jihatdan mustahkamlangan edi.

Angliyaning umumiy huquqida vakillik mustaqil yuridik tushuncha sifatida XIX asr boshlarigacha rivojlanmagan edi. O'sha vaqtgacha agentlik "tartibga solinmagan hodisa" bo'lib, unga oid qoidalar xodim va ish beruvchi munosabatlari, advokatlik xizmatlari, mol-mulkni saqlash, qarzni undirish va qayta hisob-kitob qilish kabi boshqa doktrinalar bo'ylab tarqoq holda joylashgan edi [4, 3-bet]. Agentlik haqidagi manbalar 1811 va 1812-yillargacha nashr etilmagan [2; 3]. Agentlik huquqining ko'plab tushunchalari, jumladan yashirin agentlik munosabatlari doktrinasini va estoppel doktrinasini¹ (tegishli vakolat berilmagan agentning harakatlari uchun prinsipalning javobgarligining huquqiy asosi sifatida) XIX asrda batafsil ishlab chiqildi. Agentlik huquqining ko'plab konsepsiyalari, masalan, ochilmagan agentlik munosabatlari doktrinasini va estoppel doktrinasini vakolatli agentdan boshqa harakatlar uchun javobgarlikning huquqiy asosi sifatida XIX asrda batafsil ishlab chiqilgan.

XVIII-XIX asrlarda ingliz sudlari vakolatdan tashqari harakat qilish holatlarini ko'rib chiqishgan. 1925-yilgacha agentning prinsipal bilan ichki munosabati va uchinchi shaxslarga nisbatan tashqi huquqlari orasidagi farq yetarli asoslanmagan edi. Biroq sudyalarning agent huquqiy doirada qolib, prinsipal ko'rsatmalariga zid harakat qilishi va shu orqali shartnoma majburiyatlarini buzishi mumkinligini tan olishgan. Angliya huquqi, qit'a nazariyasidan farqli ravishda, Laband gipotezasiga ehtiyoj sezmay, aniq ishlarni minimal tizimlashtirish va talqin qilish orqali shunga o'xshash natijalarga erishgan. Bu yondashuv agentlik munosabatlarining murakkab tabiatini amaliy jihatdan hal qilishga xizmat qilgan.

Bugungi kunda ishonchnoma berish (bir tomonlama iroda akti bilan shaxsga vakolat berish) va vakillik vakolati to'g'risidagi shartnoma o'rtasidagi farq kontinental Yevropa mamlakatlarining deyarli barcha zamonaviy fuqarolik kodekslarida qonuniy jihatdan mustahkamlangan.

Amalda, Zweigert va Koetz [7, 435-betlar] ta'kidlaganidek, bunday nazariy farq alohida ahamiyatga ega emas, biroq u me'yoriy tartibga solish tuzilishiga ta'sir ko'rsatgan. Vakolat berish, berilgan huquqlar hajmi, ularning muddati va ratifikatsiya (vakolat doirasidan tashqarida tuzilgan bitimni vakil qilgan shaxs tomonidan keyinchalik ma'qullash) masalalariga

¹ Estoppel doktrinasini — bu huquqiy tushuncha bo'lib, u bir shaxsning o'zining oldingi bayonotlari yoki harakatlariga zid keladigan harakatlarni qilishini cheklaydi. Ushbu doktrina, shaxsning boshqa bir shaxs yoki guruh oldida ma'lum bir pozitsiyani egallab, keyin bu pozitsiyadan o'z manfaatlarini yo'lida voz kechishini oldini oladi. Estoppel, adolatli va halol munosabatlarni saqlashni maqsad qiladi va turli huquq tizimlarida qo'llaniladi.

oid qoidalar odatda fuqarolik kodeksining umumiy qismiga kiritilgan. Vakillik haqidagi umumiy qism qoidalarini haqli ravishda yuqori yuridik abstraksiya natijasi deb atash mumkin. Bunday yondashuv natijasida vakillik huquqiy institut sifatida qaraladi. Shu bilan birga, vakillik shartnomalarining turli xillari, odatda topshiriq va vositachilik alohida me'yoriy tartibga solinishi lozim. Shunday qilib, agar shaxs berilgan ishonchnoma asosida vakillik harakatlarini amalga oshirish vakolatiga ega bo'lsa, bu borada yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar vakillik to'g'risidagi umumiy qism qoidalari bilan tartibga solinadi. Agar shaxs tuzilgan topshiriq shartnomasi va berilgan ishonchnoma asosida harakatlarni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lsa, u holda yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar ham umumiy qism qoidalari, ham topshiriq to'g'risidagi maxsus qism qoidalari bilan tartibga solinadi.

Bu yondashuv dastlab qo'llanilgan Germaniya, shuningdek Niderlandiya, Shveysariya, Shvetsiya, Italiya, Portugaliya, Gretsiya va Rossiya kabi davlatlarga xos. Ushbu mamlakatlarda vakilning vakolati bilan uning prinsipal bilan tuzilgan shartnomasi o'rtasida aniq chegara o'tkaziladi. Natijada, bunday huquqiy tizimlar vakolatni prinsipalning bir tomonlama bitimi sifatida qarab, agentga uni to'g'ridan-to'g'ri yuridik jihatdan bog'lash huquqini berish niyatini ifodalaydi. Shuningdek, prinsipal va agent o'rtasidagi ichki munosabatda tomonlarning huquq va majburiyatlarini belgilaydigan shartnomaviy huquqiy munosabatlarni ham farqlaydi.

Biroq kontinental huquq tizimidagi barcha mamlakatlar ham bu qarashga amal qilavermaydi. Nazariy xususiyatga ega bo'lgan sabablarga ko'ra, Fransiyada vakolatni tomonlar o'rtasidagi vakillik kelishuvining faqat bir jihati sifatida ko'radi. Xususan, Fransiya Fuqarolik kodeksining 1984-moddasida shaxsning boshqa shaxsni yuridik jihatdan bog'lash vakolati mandat shartnomasining tashqi natijasi sifatida qaraladi [1, 914-bet].

Fuqarolik kodeksida qonun yoki shaxsiy iroda asosida yuzaga keladigan vakolatning umumiy ta'rifi berilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 129-moddasida quyidagilar belgilangan:

*Ishonchnomaga, qonunga, sud qaroriga yoki vakil qilingan davlat organining hujjatiga asoslangan vakolat bilan bir shaxs (vakil) tomonidan **boshqa shaxs** (vakolat beruvchi) **nomidan** tuzilgan bitim vakolat beruvchiga nisbatan fuqarolik huquq va majburiyatlarini bevosita vujudga keltiradi, o'zgartiradi va bekor qiladi.*

Vakil o'ziga vakolat bergan shaxs nomidan shaxsan o'ziga nisbatan ham, u ayni bir vaqtda vakili bo'lgan boshqa shaxsga nisbatan ham bitimlar tuzishi mumkin emas, tijorat vakilligi bo'lgan hollar bundan mustasno.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 817-moddasi "o'zga shaxs nomidan harakat qilish" kontseptsiyasiga asoslangan vakillik shartnomasining ta'rifini beradi:

Topshiriq shartnomasi bo'yicha bir taraf (vakil) ikkinchi taraf (topshiriq beruvchi)ning nomidan va uning hisobidan muayyan yuridik harakatlarni sodir etish majburiyatini oladi. Vakil tuzgan bitim bo'yicha huquq va majburiyatlar bevosita topshiriq beruvchida vujudga keladi.

Topshiriq shartnomasi bevosita vakillik bo'lib, muomalada boshqa shaxs nomidan uning yuridik holatini o'zgartirish niyatida o'z yuridik holatini o'zgartirmasdan harakat qilishni anglatadi.

Fuqarolik kodeksining "Vakillik. Ishonchnoma" deb nomlangan 10-bobida vakillikning butun instituti uchun ishlab chiqilgan qoidalar mavjud bo'lib, ular vakillikning boshqa umumiy masalalari, shuningdek ishonchnoma berish bilan bog'liq o'ziga xos masalalarga ham tatbiq etiladi. Ushbu normalar o'zining huquqiy mohiyatiga ko'ra bevosita vakillik munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan bo'lib, nafaqat topshiriq shartnomasidan, balki vositachilik shartnomasidan kelib chiqadigan munosabatlar uchun ham adolatli hisoblanadi.

Shaxs vakillik shartnomasiga asoslanib boshqa shaxs nomidan bitim tuzishi mumkin emas. Fuqarolik kodeksida ishonch beruvchining majburiyatlari sifatida ishonchnoma berish majburiyati ko'rsatilmagan, ammo FK 820-moddasida vakilning majburiyatlari sifatida topshiriq bajarib bo'linganidan keyin amal qilish muddati tamom bo'lmagan ishonchnomani kechiktirmasdan topshiriq beruvchiga qaytarib berishi ko'rsatilgan. Bu shuni anglatadiki, O'zbekiston fuqarolik huquqida ixtiyoriy vakillik munosabatlari ishonchnoma bilan rasmiylashtirilishi kerak.

Vakil tomonidan uchinchi shaxs bilan tuzilgan bitim vakolatning faqat ishonchnomaga yoki topshiriq shartnomasi va ishonchnomaga asoslanganligidan qat'i nazar, O'zbekiston fuqarolik huquqida vakil qiluvchi shaxsning yuridik huquq va majburiyatlarini yaratadi, o'zgartiradi yoki bekor qiladi.

Vakil o'ziga vakolat bergan shaxs nomidan shaxsan o'ziga nisbatan ham, u ayni bir vaqtda vakili bo'lgan boshqa shaxsga nisbatan ham bitimlar tuzishi mumkin emas, tijorat vakilligi bo'lgan hollar bundan mustasno (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 129-moddasi 3-qismi).

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 133-moddasi tijorat vakilligini joriy etadi. Tijorat vakili – bu tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan shaxs bo'lib, tadbirkorlar nomidan doimiy va mustaqil ravishda tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bitimlarni amalga oshiradi. 133-modda mazmuniga ko'ra tijorat vakilligining huquqiy rejimi quyidagi huquqiy oqibatlarga olib keladi:

- Tijorat vakili bir vaqtning o'zida turli tomonlarning vakili sifatida bitimlarni tuzishi mumkin, agar barcha vakillik qilinayotgan shaxslar rozilik bildirgan bo'lsa;
- Tijorat vakili ishonchnoma bo'lmagan holda ham harakat qilishi mumkin;
- Tijorat vakili o'ziga ma'lum bo'lgan savdo bitimlari haqidagi ma'lumotlarni sir saqlash majburiyatiga ega, hatto berilgan topshiriq bajarilgandan keyin ham.

FK 133-modda berilgan tijorat vakilligi tushunchasi, shuningdek, tijorat vakilligi qoidalarining ishonchnoma qoidalaridan mustaqilligi ushbu institutlarning mohiyatidan kelib chiqadi (bu "Vakillik. Ishonchnoma" sarlavhasi bilan nomlanishida ham ko'zga tashlanadi). Har qanday vakillik munosabatlari, ular ishonchnoma asosida, topshirish shartnomasi yoki vositachilik shartnomasiga asoslangan bo'lsin, vakil tadbirkorlik subyekti deb e'lon qilinishi bilan, Fuqarolik kodeksining 133-moddasi oqibatlari darhol kuchga kiradi.

Tijorat vakilligi instituti – faqatgina kontinental tizimning yutug'idir. Avvalroq ta'kidlanganidek, ingliz huquqi agentlik munosabatlarini tijorat deb tan olish uchun hech qanday amaliy qoidalarni kiritmaydi va bu borada maxsus doktrinalarni qurmaydi. Pretsedent huquqida vakillik munosabatlari bu ma'noda yagona umumiy agentlik modeli bilan tartibga solinadi.

Xulosa. Vakillik instituti O'zbekiston fuqarolik huquqi tizimida alohida ahamiyat kasb etadi va u umumiy kontinental huquq tizimining bir qismi sifatida rivojlangan. Anglo-sakson va kontinental huquq tizimlari o'rtasidagi farqlar va ularning vakillik huquqiga ta'siri, qiyosiy huquqshunoslik sohasida muhim tadqiqot mavzusi Vakillikning qonuniy va ixtiyoriy (konsensual) turlari, shuningdek uning manbalari va kelib chiqishi, O'zbekiston fuqarolik huquqida o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi.

Zamonaviy tijorat dunyosida vakillikning asosiy vazifasi – xo'jalik muomalasini rivojlantirishga ko'maklashishdir. Bu ishtirokchilarga boshqa shaxslarning harakatlari orqali huquqiy oqibatlarni vujudga keltirish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, O'zbekiston fuqarolik huquqida vakillikning huquqiy asoslarini tushunish va qo'llash, fuqarolik-huquqiy amaliyotda adolat va samaradorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Vakillikning

turli shakllari va ularning qo'llanilishi, shuningdek vakillikning kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini yaxshiroq tushunish uchun qo'shimcha tadqiqotlar zarur.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Beale H. et al. Cases, materials and text on contract law. – Bloomsbury Publishing, 2019.
2. Livermore S. Treatise on the Law of Agency. – 1811.
3. Paley W., Dunlap J. A. A Treatise on the Law of Principal and Agent: Chiefly with Reference to Mercantile Transactions. – Banks, Gould & Company, 1856.
4. Stoliar. The Law of Agency. London: Sweet & Maxwell, 1961. 341 p.
5. Verhagen H. L. E. Agency in private international law: the Hague convention on the law applicable to agency. – Martinus Nijhoff Publishers, 2023.
6. Zimmermann R. The law of obligations: Roman foundations of the civilian tradition. – Juta and Company Ltd, 1990.
7. Zweigert K. An Introduction to Comparative Law // Clarendon Press. – 1998.
8. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism. I.B.Zokirov; Mas'ul muharrir: H.Rahmonqulov: Qayta ishlangan va to'ldirilgan beshinchi nashr. –T.: TDYUI nashriyoti, 2009. 611 bet.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/6 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).